

«YOSHLAR YILLI» SENING NAFASING

O'zimni dunyodagi eng baxtli qiz deb bilaman. Ayni damda bu baxtni yurtimizdag'i har bir yosh his etayotgan bo'sha, ajabmas.

Aynan «Yoshlar yili»da o'zim sevgan sohaning diplomini qo'lga kiritaman. Bu ham hayotimdag'i eng katta yutug'im. Kelajakda el koriga yaraydigan jurnalista sifatida yurtga tanilmochiman. Axir yurtga kerakli inson bo'lishdan ham ortiq baxt bormi?!

*Uchar otga aylan hayotda,
Parvoza aylansin ovozing.
Ezgulikka bog'lan bu otda,
Moviyarni quchsin parvozing.*

*Nafisa RUSTAMOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining 4-bosqich talabasi*

sohaning diplomini qo'lga kiritaman. Bu ham hayotimdag'i eng katta yutug'im. Kelajakda el koriga yaraydigan jurnalista sifatida yurtga tanilmochiman. Axir yurtga kerakli inson bo'lishdan ham ortiq baxt bormi?!

*Yoshlar yili» sening nafasing,
Yaxhilarga kelsin havasing.
Asl boylik yoshlikdur asli,
Qaytib kelmas aslo bu daming!*

*Nafisa RUSTAMOVA,
O'zMU jurnalistika fakultetining 4-bosqich talabasi*

ORZULAR PARVOZINI TILAYMAN!

2007-yilda «Kelajak ovozi» tanlovingning Badiiy ijod yo'naliishi she'larim va jamiatyayotining asosiy nuqtalarini yorituvchi maqolalarim bilan ishtirot etib, g'olib deb topildim. Men bundan baxtiyorman. Shuni angladim-ki, bugun o'z fikriga ega bo'lgan iqtidolri farzandlarning barchasi munosib taqdirlanib kelinmoqda. Ana shunday yuqori natijalarga erishishimning sababi kitob va unga bo'lgan muhabbatimdir. «Yoshlar yili»da yurtimizdag'i barcha yoshlarga omad, orzular parvozini tilayman!

Otabek RAHIMOV

BARCHAGA MADAD BO'LSIN!

2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qilingani ko'pgina imkoniyatlarga turtki bo'ldi. Bu damlar umrning eng go'zal xotiralariga boy bo'lib, abadiyatga aylanadi. Istardimki, har birimiz yoshligimizni mazmunli, xushnud o'tkazaylik.

*Umida UZOQOVA,
«Mehr nur» jamg'armasining
2007-2008-o'quv yili stipendianti*



Tong
YULDUZI

Vatan yagonadir, Vatan bittadir!

O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

**2008-yil
18-fevral
N:8
(66653)**

**«Tong yulduzi» bilan biz
hamisha xushchaqchaqmiz!**

Suratda: Toshkent shahar, Sergeli tumanidagi
300-maktabning ustoz va o'quvchilari.



KEYINGI SONLARDADA O'QIYSIZ:

**1 LEV TOLSTOYNING
BOLALAR UCHUN
YOZGAN ENG YAXSHI
HIKOYALARI**

**2 KUTUBXONAM,
KUTIB
QOLMA!**

3 SHE'R ISHQI

Muhiddin OMON

HAMISHA YORUG'DIR YULDUZLI SAMO

(Yoshlar marshi)

Istiqlol nurini tuygan avlodmiz,
Ko'kdagi lochindek erkin, ozodmiz.
Baxtimiz barqaror go'zal Vatanda,
Ulug'lar shoniga voris zuryodmiz.

Gul Vatan bag'rida gulga o'xshaymiz,
Hur Vatan koriga hamisha shaymiz.
Buyuk ajodolarning shiori dilda:
Elim deb, yurtim deb, yonib yashaymiz!

Naqarat:
Hamisha yorug'dir yulduzli samo,
Hilol nur sochadi, panohdir Humo.
Navqiron vujudda to'lg'onar yurak,
Aziz O'zbekiston, Senga jon fido!

Biz yoshlar davlatning suyanchlarimiz,
Ota yurt, ona el quvonchlarimiz.
Buyuk kelajakning bunyodkorları,
O'zbekning umidi, ishonchlarimiz.

Kamolot ko'zgusi – iste'dodimiz,
San'at-u mahorat ham ijodimiz.
Ilm-u fan toqida oftob misoli,
Porlagay elsevar e'tiqodimiz!

Biz Vatan posboni, shunqorlarimiz,
Ko'kni ko'zlagaydir tulporlarimiz.
Xalqimiz tinchligin buzmoq istasa,
Xor-u zabun bo'lar ag'yorlarimiz.

Naqarat:
Hamisha yorug'dir yulduzli samo,
Hilol nur sochadi, panohdir Humo.
Navqiron vujudda to'lg'onar yurak,
Aziz O'zbekiston, Senga jon fido!



Vogeatar, xabarlar, ixtiolar

Tong yulduzi
18-fevral

2008

Ishq bog'iga kirgan o'spirin,
Deydi: — Ilk bor kashf etdim o'zim!
U ko'rmaydi, ming yillar burun,
O'tgan-ketgan bobolar izin.

SHUHRAT

NAVOIYGA O'XSHASAK

— Bugungi bayramda men sahnaga Navoiy bo'lib chiqaman, mana, kiyimlarimni qarang, — deydi sahna ortida she'rini takrorlayotgan bolakay Abror ABDUL-LAYEV. Ular sinfdoshlari bilan Navoiy tavalludiga bag'ishlab tadbir tayyorlashgan. Sinf rahbari **Munira opa YUSUPOVA** ularga bosh-qosh. Sahnada «Munojob» kuyi ostida o'quvchilar birin-ketin ko'rinishdi. Ular so'zni assalomdan boshlashdi:

«Assalom, Navoiy, mo'tabar ustoz,
Xalqim e'zozlagan buyuk ajdodim!...»

Navoiyni ta'riflashni boshlagan qizaloqning gapini eshitir:

— Yosh Alisher bolaligida o'tkir zehnli va ziyrak, ilmga chanqoq bo'lgan, 4-5 yoshidanoq o'qish va yozishni bilib olgan, — deb bijirlaydi-yu, uning o'zi ham, sahnadagi sinfdosh do'stlari ham bu ta'rifga loyiq, nazarimda.

Xalqimizda bolalarga ibrat bo'lguvchi hikmatli

so'zlar ko'p. Siz ulardan nechtasini bilasiz? Navoiyning ham hikmatlaridan o'qigandirsiz-a? O'quvchilar ulardan bir nechtasini yod olishibdi. Sinfning tirishqoq o'quvchilaridan biri Avazbek ABDUHAMIDOV o'zi yod olgan hikmatli so'zini shunday izohlaydi:

— Ustozim barchamizga Navoiy o'gitlarini bo'lib bergenlar. Menikini eshitib ko'ring: «Olamdan g'amsiz o'tay desang, ilm-u hunar o'rgan», deganlar bobomiz. Biz ham ustozdan bilim olib, mana bugun sahnada buni ko'rsataymiz. Bayram orqali esa Navoiy bobomiz haqida ko'p narsalarni bilib oldik. Ular ustozlarni, otamonizni hurmat qilishimiz kerakligini, birini oy deb bilib, birlarini quyosh deb bilishimiz kerakligini she'rlerida yozadilar.

Shuningdek, tadbirda bolalar Navoiyning chet tiliga tarjima qilingan ruboiylardan ham o'qib berishdi. 3-sinf o'quvchisining rus va ingliz tillarida aniq talaffuz bilan gapira olishi bu mактабда yangilik emas. Chunki mактабда o'quvchilarining chet tillarini o'rganishlariga katta e'tibor beriladi. Koreys markazi mutaxassislar bilan hamkorlikda koreys tili to'garagi ham tashkil qilingan. Bu sinfa Akbar Ubaydullayev chet tili «bilimdoni». 300-mактабning o'quvchilar faqat o'qish bilan ovora ekan-da, deysizmi, yo'q-yo'q, ular o'yinkulgini ham bilishadi. Axir tadbir raqs-ashulasiz o'tarmidi? Sevimli san'atkorumiz Yulduz Usmonova Navoiyning bir nechta tuyuqlarini ijro etgan. Ulardan biriga 3-«B» sinf o'quvchisi Shahzoda MIRSAQ'DULLAYEVA raqsga tushdi. U sinfning raqqosa qizi ekan. Tadbirlar uning raqsisiz o'tmaydi.

Tadbir so'nggida esa o'quvchilar jo'r bo'lib, Navoiyning ustoz haqidagi so'zlarini takrorlashdi. Bu

Uchinchi chorakning boshida maktabingizda qanday bayram o'tkaziladi, desam, shubhasiz Navoiy bobomiz tavallud topgan kunni aytasiz-a?! Barakalla, fikringizga qo'shilaman. Axir buni boshlang'ich sinf o'quvchisi ham bilaboshu. Zero, Sergeli tumanidagi 300-mактабning 3-«B» sinf o'quvchilarini tomonidan o'tkazilgan tadbirni ko'rib, bunga amin bo'ldim.



orqali ular Navoiyni anglatgan ustozlariga rahmat aytgan bo'lsalar, ne ajab! Zero, «Bir darsda 30-35ta o'quvchiga bilim berilsa, bunday tadbirlarda butun mактаб o'quvchilarini nimanidir o'rganishadi, dunyoqarashlari kengayadi. Shuning uchun mактабdagi ochiq darslar, tadbirlarni hamisha qo'llab-quvvatlaymiz. Bu yil «Yoshlar yili»da ularni yana-da kengaytirib, yangi tanlovlarni ham tashkil etmoqchimiz. Hozirda shulardan biri «Direktor stipendiyasi»ga o'quvchilarini saralashni boshladik. Unda ham mактабda o'tkazilayotgan bayram va tadbirlarda faol ishtirot etib kelayotgan o'quvchilar hisobga olinadi», deydi mактаб rahbari **Malika opa ABDULLAYEVA**.

Demak, tadbir va ko'rliklarga boy ushbu mактабda yana uchrashamiz. Keyingi sonlarimizda sizni mактабning «Direktor stipendiyasi» g'olibi bilan tanishtiramiz, degan umiddamiz.

Sayyora JO'RAYEVA



SOVG'ALAR KUTMOQDA!



Aziz o'quvchilar! «Tong yulduzi» gazetasining 2007-yil 39-sonida «Boy bo'lishni istaysizmi?» sovrinli tanlovi e'lon qilinganidan xabaringiz bor. Ushbu tanlovda Toshkent shahridagi 225-mактабning 7-«V» sinf o'quvchisi Tohirjon Ubaydullayev hamda Respublika ixtisoslashgan mактаб-majmuasining 4-«B» sinf o'quvchisi Madina Sultonovalar g'olib deb topildilar. G'oliblar tahririyatga taklif qilinib, ularga atalgan sovg'alar topshirildi. Tahririyat xodimlari Madina va Tohirjonni tanlovda g'olib bo'lganliklari bilan qutlab, ular bilan birgalikda esdalik uchun suratga tushdilar.

— «Tong yulduzi» gazetasida o'tkaziladigan har bir tanlovda ishtirot etishga harakat qilaman, — deydi Madina. — «Boy bo'lishni istaysizmi?» tanlovi e'lon qilinganidan so'ng, gazetaga birinchilardan obuna bo'lish istagi meni tinch qo'ymadni. Shuning uchun ham bobojonim bilan birgalikda suratim va obuna varaqamni tahririyatga olib kelgandik. Bugun esa tanlovda g'olib bo'lganidan nihoyatda xursandman.

Eslatib o'tamiz: «Boy bo'lishni istaysizmi?» tanlovi davom etmoqda. 2008-yilning ikkinchi yarmi uchun obuna bo'lib, obuna varaqangiz va suratingizni tahririyatga yo'llang. Mustaqillik bayrami arafasida tanlov ishtirokchilarining barchasi tahririyatga taklif qilinib, birgalikda g'olibni aniqlaydilar. G'oliblarni sovg'alar kutmoqda!



JAJJI IXTIROCHI



Besh yoshli Hamidjon otonasidan barvaqt yetim qoldi. Juda keksayib qolgan Mehri buvijonisi uni oq yuvib, oq taradi, o'zi yemay yedirdi, kiymay kiyordi... Ko'p o'tmay, u kishi ham olamdan o'tdi.

Mahalla oqsoqollari bilan maslahatlashib, Malika opa Hamidjonni o'z qaramog'iga oldi.

Bir kuni Hamidjonni bozorga olib bordi. Ancha narsalar xarid qilib qaytishayotganda, Hamidjonning ko'zi bir kitobga tushib qoldi.

— Malika opa, iltimos, menga mana bu mashinalar rasmi bor kitobchani olib bering, — dedi u yalinib-yolvorib.

Malika opa kitobchani olib berganida, juda quvondi va kitobni qo'lidan qo'ymay o'qidi. Tez orada «Yosh texniklar» to'garagiga a'zo bo'ldi. Bir kuni u mittigina mashina yasadi va uni do'sti Murodjonga sovg'a qildi. Shundan buyon uni «Ixtirochi bola» deb chaqirishyapti. Hamidjon ulg'aygach, muhandis bo'lmoqchi. Shuning uchun hozirdanoq puxta bilim olyapti.

Mushtariybegim ISOQOVA,
Toshkent shahridagi 91-mактабning 6-sinf o'quvchisi

SIRINGIZNI KIMGA AYTASIZ?



KO'NGILDAGI TUYG'ULAR

Sir! O'zi nima degani? Menimcha, sir bu yurak tubidagi hech kimga aytalmagan orzu va xayollarimiz bo'lsa kerak. Inson boshqalardan yashirgan tuyg'ularni ko'nglining tubida saqlaydi. Ba'zi hollarda eng yaqin insoni bilan bu tuyg'uni o'rtoqlashgisi, undan maslahat olgisi keladi. Ana shunday holatga duch kelganimda, o'z sirimni onamga va eng yaqin do'stimga aytalaman. Lekin har kim ham birovning sirini saqlay olmaydi. Bundaylarga esa hech qachon ishonib bo'lmaydi.

Dildora ABDUJABBOROVA

SIRDOSH QANDAY BO'LADI?

O'zi sirdosh qanday bo'lishi kerak, degan savolga shunday javob bera olaman: sirdosh ishonib aytgan gaplaringni birovlarga aytmasligi kerak. To'g'ri, birovning sirini saqlash juda qiyin. Men sirlarimni eng yaqin dugonam Malikaga aytamaq. U men aytganlarimni hech kimga aytmasligiga ishonaman.

Umidaxon SHAROPOVA

Bu borada har kimuming fikri turilcha bo'lsa kerak. Kimdir sirini ishonib do'stiga, dugonasiga aytsa, yana kimdir otasiga yoki onasiga aytishi mumkin. Aksincha, umuman sirini hech kimga aytmaydiganlar ham oramizda uchrab turadi. Poytaxtdagi 70-maktabning 6-«D» sinf o'quvchilari sir saqlashni quyidagicha izohlaydilar:

DADAM DAN YASHIRAMAN

Qiz bolaning sirlari ko'p bo'lsa-da, sirdoshlari oz bo'ladi. Men barcha sirlarimni onamga aytolmayman. Chunki onam dadamga aytib qo'yishlaridan qo'rqaman. Dadam oila boshlig'i bo'lganliklari uchun har xil muammolarni aytib, boshlarini qotirishni xohlamayman. O'ylab ko'rsam, oila boshqarish oldida mening sirlarim arzimas narsa bo'lib ko'rindi. Shuning uchun ham oyimni va dadamni qiyamay, sirlarimni dugonamga aytaman.

Mahliyo QURBONBOYEVA

ZULQARNAYN HOLIGA TUSHMAYMAN

Men ishonib sirimni aytadigan inson qanday bo'lishi kerak? Eng avvalo, u mening aytganlarimni hech kimga aytmasligi va menga to'g'ri maslahat bera olishi kerak, deb o'yayman. Mening bunday yaqin insonim borligidan xursandman. Boshlang'ich sinfdan beri birga o'qib kelayotgan sifdoshim Bobur eng yaqin sirdoshim. Sir saqlash o'ta mushkul bo'lsa-da, hech qachon Iskandar Zulqarnayn holiga tushmasligimga ishonaman.

Jahongir OBIDJONOV

HECH KIMGA AYTMAGANMAN...

Men sirimni hech kimga aytman. Chunki uchinchi odam bilgan siri sir deb bo'lmaydi. Biz xayolimizda o'ylagan har bir o'yni sir deb hisoblamasligim kerak. Biror-bir xato qilib, uni sir deb hisoblab yashirib yurish noto'g'ri. Aksincha, bu xatoni otanonidan yashirmay aytaksular bizga to'g'ri maslahat berishadi. Shu bilan bunday xatolarni qayta takrorlamaslikka imkon tug'iladi.

Dilafra'z ABDURAHIMOVA



«Mahallaning namunali qizi» mavzusidagi ko'rik-tanlov Uchtepa tumani, «Jurjoni» mahallasi qizlarining tinchini buzdi. «Kim bo'larkin-a, namunali qiz?» degan fikr ularning xayoliga o'rashdi. Mahallada istiqomat qilayotgan 90 nafar qizlarning 30 dan ziyodi tanlovda qatnashish istagini bildirishgach, tayyorgarlik qizigandan qizidi. Tanlov tikuvechilik, to'quvchilik, qandolatchilik, uy hamshirasi, kompyuter o'quv yo'nalishlari bo'yicha bo'lib o'tdi. Aziza bellashuvda tengdoshlaridan ustun chiqdi. Qizlarni oilaviy hayotga tayyorlashda bunday tadbir-larning o'mi beqiyosligi yana bir bor namoyon bo'ldi. Zero, har tomonlama barkamol, sog'lom farzandlar yurt kelajagi hisoblanadi.

Aziza G'iyosova mustaqillik tengdoshi. U Yunusobod tumanidagi 9-maktabda o'tkazilgan «Maktabimizning zukko qizi» tanlovida ham g'olib chiqdi.

O'z ustida ishlab, bilim va malakasini muntazam oshirib borayotgan Aziza G'iyosova Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti ko'rik-tanloving tuman bosqichida san'at yo'nalashi bo'yicha g'olib chiqib, shahar bosqichiga yo'llanma oldi. Iste'dodli va iqtidorli qizning kelajakda Zulfiyaxonim orzu qilganlaridek, jamiyatimizning faol ishtirokchisiga aylanishiga, el-u yurtiga sidqidildan xizmat qilishiga, bir oilaning sevimli bekasi bo'lishiga astoydil ishonamiz.

AZIZA G'OLIB CHIQDI

2008-yil - «Yoshlar yili»



Zamira TO'LAGANOVA

BIROVGA «SOTIB» QO'YMASMIKIN?

Ba'zida juda zerikkanimda, yaqin dugonam bilan subbatlashib o'tiraman. Lekin hamma sirlarimni unga aytolmayman. Chunki men aytgan gaplarimni boshqalarga «sotib» qo'ymasmikan, deb o'yab qolaman. Birovni sirini saqlash qiyinligini bilaman. Buning uchun inson mard bo'lishi kerak. Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, sir saqlash ham jasoratdir.

Dilorom SAMATOVA

YURAKKA SIG'MAGAN GAPLAR

Ayrim insonlar sirmi hech kimga aytish kerakmas, uni yurak tubida saqlash kerak, deb hisoblaydilar. Menimcha, siri kimgadir aytib, yurakni bo'shatish lozim. Bo'lmasa inson siqilib ketadi. Bunday vaziyatlarda yurakka sig'dirolmagan xoh quvonchli, xoh tashvishli o'yayollarni yaqin do'stlarga aytsa, yomon bo'lmaydi. Yaxshi do'st albatta yaxshi maslahat bera oladi. Men ham o'z sirlarimni ustozimga aytaman. Shundan so'ng, yengil tortaman. Chunki men ularga ishonaman.

Shirin SAIDG'OZIYEVA

BOBOMIZGA EHTIROM

Bizning Qarshi shahridagi 34-maktabimizda ham Navoiyga bag'ishlangan «Barhayot Navoiy» nomli adabiy-badiiy kecha bo'lib o'tdi.

Maktabimiz direktori Mamlakat Qodirova kirish so'zi bilan olib bergan kechamizni 9-«A» sinfining bilimdon va zukko o'quvchisi Sabina Mamadaliyeva olib bordi. Unda 6-«A» sinfining «Fano» hamda 6-«J» sinfining «Navo» guruhlari o'zaro bellashdilar. Buyuk shoir ijodidan namunalar o'qishdi, savol-javoblar bo'ldi. 6-«J» sinf o'quvchilari bilimdonlik bobida ustunliklarini isbotlashdi va kecha g'olibi bo'lishdi.

Sh. ABUNABIYEVA,
6-sinfo'quvchisi

Bolam, sen bugun o'n ikki yoshni qarshi olding. Bolalikning beg'ubor damlari senga hamroh. Yorug'likka kelgan kuming ayni yoz pallasi edi. Go'yo quyoshni quchog'imizga tushgandek his etdik. Onang bilan qanchalar quvonganimizni bilsang edi. Boshimiz osmon-u falakka yetgan. Sen zehmi o'tkir bola bo'lib chiqding. To'rt yoshingdan boshlab men aytgan she'rlarni bir zumda qoriyod qilarding. Qishloq to'ylarida davraboshi bo'lganimda, she'r aytishga oshiqib, katta davraga chiqqan jajjigina bolakayni she'rlaridan ko'plarning hayrati oshgan. Kelinlar senday bolalarni dunyoga keltirishni orzu qilib, pinhona seni quchib-quchib olganlariga guvoh bo'Iganman...

Bugun o'n ikki yoshdasan. Bobomiz Bobur Mirzo sening yoshingda taxtda o'ltrib, davlat ishlari bilan band bo'lgan. Sen-chi, nimalar bilan bandsan?.. Yaqinda qishloqqa borib, baholaring pasayib ketganini ko'rib achindim. Sababini so'rasam, ko'p narsalarni vaj qilding, qishloqda imkoniyatlar kamligidan noliding. Senga kompyuter olib berolmaganimni pesh qilding. Balki e'tirozlarining o'rinnidir. So'zlarining bolaligimni yodimga soldi. Biz bolalikda ta'tilni tog'lar quchog'ida o'tkazardik, o'shanda tunlari gulxanning atrofida o'tirib, dostonxonlik qillardik. O'n ikki nafar farzandni ulg'aytirgan onamiz rahmatlik bizlarni hech qachon butun bo'lib qolganimizni ko'rmagan bo'lsalar kerak. Birimiz harbiyda bo'lsak, yana birimiz shaharda, kenjatoyimiz albatta qirlar bag'rida mol boqib yurgan bo'lardi. O'shanda onam ko'nda charaqlab turgan to'lin oyga yolvorib, «Oy, bolamning boshidamisan?» degan iltijolarini ko'p bora eshitganman. Bugun oy mening boshimda charaqlab turibdi. Seni sog'inib, onamning so'zlarini oyga shivirlab aytayapman: «Oy, bolamning boshidamisan?»

Ko'ngil hijroni meni shu ko'yga solganini bir kun albatta tushunib yetgaysan... Garchi Mashrab bobo devonalari yanglig' kuyib-yonib o'tgan bo'lsalar-da, biz ul zotni shoh Mashrab deya tilga olamiz. U ulug' zotning she'rlari asrlardan asrlarga o'tib kelyapti. Sening yoshingda bir bayt g'azali bilan Lutfiy hazratlarini lol qoldirgan ulug' Navoiy bobomiz qoldirgan buyuk meros besh yuz oltmis yetti yildir dunyo ahlini hayratda qoldirib kelayotgani sir emas. Yulduzlar bilan sirlashgan shoh va olim Mirzo Ulug'bekning rasadxonasida hisobsiz kitoblar bo'Iganiga guvohmiz. Bugun kompyuterga yopishib olgan shaharlik tengdoshingni boshi otishma o'yindan chiqmay qolganiga achindim. Fikr-xayolini befoyda o'yinlarga sarf qilmayoptimikin?! Insonni ulug'likka ko'taradigan narsa bu - hayrat. Kishi Yaratganning mo'jizalaridan hayratlanib yashasa, albatta ko'p narsaga erishadi. Bobom rahmatlik bizlarni oynayi jahonga yaqin yo'latmas edilar: «Yosh bolaga nurning ziyoni bor, ko'zlarining xira qiladi», derdilar. O'ylab ko'rsam, bobom haq ekanlar. Fikr teran bo'lishi uchun ko'proq kitob o'qish kerak. Kitobdan ko'nglingni uzmagin. Kitobda gap ko'p. Kitob kishining ko'nglini yorug', ko'zlarini ravshan qilgay.

Men senga, darslarining o'zlashtirsang, velosiped olib beraman, degandim. Ertasi kuni darsdan beshta «besht» olib qaytding.

O'qigin, velosiped nima bo'libdi?! Sen dunyoni olishga qodir bo'll! Ulug' odamlarga havasim ortganidan ismingni Islom qo'ydim. Islom KARIMOV bo'lding. Yurtboshimizning jajji nabirasi. Albatta bu nomni ulug'laysan, deb o'layman. Prezident bobongni mamlakat obodonchiligi yo'lida olib borayotgan ishlari nazar sol. Hisobi yo'q... U kishi 2008-yilni «Yoshlar yili» deb e'lon qildilar. Bu sen uchun yana bir katta g'amxo'rlik emasmi? O'qigin, qishloqda ko'rgan kamchiliklarining bartaraf etish yo'llarini o'zing izlab top!

Pandim senga yoqdimi? Omad yor bo'lsin! Sening baxtli bolaliging baxtiyor o'tishini Yaratgandan tilab qoluvchi, padari buzrukvorin!

Axtamqul KARIM

PANDIM SENGA YOQDIMI?



DAVRON ELINING JISMIDA JON BO'LG'IL



Toshkent-turizm kasb-hunar kollejida Alisher Navoiyning 567 yilligi hamda Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 525 yilligiga atab o'tkazilgan tadbir ana shunday nomlandi. Ma'naviy-ma'rifiy kechaga taklif etilgan Yunusobod tuman ma'naviyat targ'ibot markazi rahbari Nigora Abdurahimova, «Tong yulduzi» gazetasi muxbirleri, olimlar, IIB xodimlari o'quvchilarga tanishtirilib, kecha ochiq deb e'lon qilindi.

Kollej direktori Xolmatjon Ahmedov o'z so'zlarini orqali yoshlar tarbiyasida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning o'mi beqiyos ekanligini ta'kidlab o'tdilar:

— Kollejimizda ko'plab tadbirlar o'tkazib turiladi. Bundan asosiy maqsad, yoshlarimizni barkamol inson, kelgusida jamiyatda yuksak mavqega ega bo'lib yuruvchi shaxslar sifatida ko'rgimiz keladi va bu yo'lda jamoamiz barcha kuch-g'ayratlarini ayamaydilar.

Ushbu maskanda yoshlarga katta e'tibor qaratilayotgani kollej ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktorning birinchi o'rinosi Bahodir Valiyev so'zlaridan ham o'z ifodasini topdi:

— «Yoshlar yili» munosabati bilan kollejimiz o'quvchilarining tafakkur dunyosini kengaytirish yuzasidan ko'plab tadbirlarni amalga oshirish rejalashtirilgan. Ayniqsa, o'quvchi yoshlar o'rtasida



turli xil jinoyatchiliklarni oldini olish, diniy aqidaparastlik, terrorizm, giyohvand moddalarning zararli oqibatlari yuzasidan soha mutaxassislari va adabiyot hamda san'at namoyandalarini bilan uchrashuvlar, shular jumiasidandir.

Shundan so'ng, ulug' ajodolarimiz Alisher Navoiy hamda Zahiriddin Muhammad Bobur hayoti va ijodi haqidagi fikrlarni, ular ijodidan namunalarni o'quvchilar diqqat bilan tingladilar. Savollarga javoblardan so'ng, kechada faol ishtirop etgan o'quvchilar Qahramon To'lqunov, Nargiza Asadova, Angelina Asamovalarga mehmonlar o'z sovg'alarini taqdim etdilar.

Gulyuz ORIFJONOVA

TADBIRDAN QUVONDIK



Shahrimizdagagi xitoy tiliga ixtisoslashtirilgan 59-maktabda ulug' bobomiz Alisher Navoiy tavalludiga bag'ishlangan kecha bo'lib o'tdi. Kechada mahalla faollari ham qatnashdilar. Kechani ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinosi Melixon Sharipova kirish so'zi bilan ochib berdi. Tadbiriga tashrif buyurgan Islom universitetining islomshunoslik kafedrasi o'qituvchisi Doniyor Murodov Navoiy bobomiz haqida, Islom universitetini magistranti Jaloliddin Karimov ota-onasi va farzand burchi to'g'risida fikr bildirdilar.

O'quvchilar Navoiy g'azallaridan namunalar o'qishdi. Tadbir barchaga quvonch baxsh etdi.

Uch avlod uchrashuvi



Muzaffar AHMEDOV

ATAULLOGA HADYA QILINGAN BOG'CHA-HOVLI

Ayni kunlarda she'riyat mulkining sultonni, hazrat Alisher Navoiy tavalludi joylarda keng nishonlanmoqda. Buyuk bobokalonimizni xotirlash maqsadida, filologiya fanlari doktori, professor Hamidjon Homidiy bilan suhbatlashdik.

Hamidjon Homidiy taniqli sharqshunos, adabiyotshunos, olim va tarjimonidir. Uning «Olis – yaqin yulduzlar», «Qirq besh alloma hikoyati» va «Mashq zamin – hikmat bo'stoni» kabi ko'plab kitoblari o'quvchilar tomonidan sevib o'qiladi. Domla Nizomiya nomidagi pedagogika universiteti talabalariga saboq berish bilan birga, Navoiy ijodini tadqiq va targ'ib qilish bilan ham jiddiy shug'ullanib kelmoqdalar. Ustoz rahbarligida «Navoiyga armug'on» ilmiy to'plami muntazam ravishda nashr etib boriladi.

– Shoir bobomizning bolalik yillari va yoshlarga munosabati haqida gapirib bersangiz.

– Alisher Navoiy bolaligidan zukko, zehni o'tkir, mehnatkash va ilmiga chanqoq bola bo'lgan. Oila muhitida otasi G'iyosiddin Kichkinaning do'stlari tomonidan aytilgan har bir fikrni quyma-quloq qilib o'zlashtirib olardi. Ko'p she'r yod olar va har bir eshitgan baytini yodida saqlashga intildi. Shuning uchun ham u to'rt yoshida mashhur faylasuf Farididdin Attorning

«Mantiq ut-tayr», «Qush tili» dostonini to'la yodlab o'lgan.

Navoiy maktab va madrasada bir umrlik do'sti Husayn Boyqaro bilan birga o'qidi. U maktabdosh va hamsaboqlarini e'zozlar, ustozlarini hurmat qilardi.


– Navoiy ko'plab yoshlarning homysi va tarbiyachisi bo'lgan, deb o'qiganimiz, eshitganimiz. Shu haqda sizning fikringizni bilmogchi edik.

– Haqiqatan ham Navoiy butun Hirot ilmiy, ijodiy, ma'rifiy muhitning homysi, rahbari va yo'lbochchisi bo'lgan. U ko'plab masjid, madrasa, xonaqoh, tabobatxona, maktablar va qiroatxonalar qurdirish bilan birga, 40 dan ziyod olimlar, shoirlar, musavviri u xattotlarning bevosita tarbiyachisi bo'lgan. Alovida iste'dod sohiblarini to'g'ri tarbiyalishini nazorat qilib borgan. Kam ta'minlangan madrasa talabalariga vaqf mulki hisobidan maosh tayinlagan. Boshpanasizlarga uy-joy bergen. Uning homiyligida voyaga

yetgan adabiyotshunos, shoir Ataullo Mahmudu Husayni shunday yozadi: «Nizomiya madrasasi yonida qarindoshurug'larimdan pul yig'ib, bir hujrani sotib olmoqchi bo'lgandim. Ittifoqo, buyuk amir devoni xizmatkorlaridan biri o'sha hujrani mendan ko'ra ko'proq pulga o'g'li uchun sotib olmoqchi bo'libdi. Men amirning xuzuriga bordim. Xizmatkorlardan izn so'rab, xona eshigini ochdim. Amir sohib Doro bilan nard o'ynayotgan ekanlar. Men kirishga ijozat so'radim. Bosh qimirlatib ijozat etdilar, ichkariga kirdim. Biroz dona surgach, Amir menga shunday murojaat etdilar: – Mavlononi qanday yumush huzurimga boshlab keldi?

Qo'l-oypoqlarim qaltirab, o'zimni yo'qtayozdim va birozdan so'ng, o'zimni qo'lga olib dedim:

– Men Nishopurlik yetim bola Atoyiman.



Nizomiya madrasasi yaqinidan qarindoshlar ko'magida bir hujra sotib olmoqchi edim. Devoningiz xizmatkorlaridan biri mendan ko'ra ko'proq pulga sotib olmoqchi. O'sha janobga aystsangiz, hujrani menga qoldirsa...

Amir yana nard donalarini surish bilan band bo'ldilar. Birozdan so'ng, menga qaradilar-da, davom etdilar:

– Siz o'sha hujrani qo'lga kiritishingiz shartmi yo sizning muxlisingiz boshqa xona bersa ham bo'laveradimi? – Va qo'qqisidan sohib Doroga murojaat qildilar:

– Shu bugundan e'tiboran Nizomiya madrasasi yaqinidagi Devonga qarashli to'rt xonali bog'chalik hovli Ataullo Mahmudu Husayni nomiga xatlab berilsin va oxirgi chegara mijgorida davlat hisobidan maosh tayinlansin!

Bu yigitcha keyinchalik Atoyi tahallusida she'r yozib, devon tuzgan. Navoiyga bag'ishlov «Badoye us-sanoye», «Nafis san'atlar» kitoblarini yozgan mashhur adibdir. Hazrat Navoiy atoqli shoir va yozuvchilardan Zayniddin Vosifiy, Osafiy, Kotibiy va boshqalarning kamolotga yetishishida ham bevosita rahnamolik bilan ular ijodini kuzatib, taqdirlab kelgan.

Yosh avlodni komil inson etib tarbiyalashda, ijodiy faoliyatini to'g'ri yo'naltirishda Navoiy ko'plarga ibrat bo'lgan. Bobomizdag'i bunday fazilatlar zamonomamizning atoqli olimlari, ziyorilari tomonidan tashviq etilib, o'z faoliylarini davomida tinimsiz izlanayotganliklari kishini mammun etadi.

– **Mazmunli suhbatning uchun rahmat, ustoz!**

SHAHNOZA va AZIZA suhbatlashdi

suhbat mavzusi darslar haqida emas, asosan, telefonlar haqida bo'layotgani ranjitadi kishini. Yaxshigina telefon apparatlarini falon pullik yangi markadagisiga almashtirib turishlariga nima deysiz?

To'g'ri, tezkor zamonda, texnika asrida yashayapmiz. Lekin har narsaning me'yori bo'lgani yaxshi-da.

Zilola MUTALOVA,

O'zMU qoshidagi litsey o'quvchisi



– Dadajon, menga ham qo'l telefonini olib bering, – deb qoldi 6-sinfda o'qiydigan ukam tunov kuni. Dadam: – Hali juda kichkinasan, nima qilasan telefonni? – desalar:

– Sinfimizda hammada bor, birgina menda yo'q, – deya x'arxasha qildi.

Maktabda o'qiyotganimda, a'lochi partadoshim Jasurga telefon olib berishgandi. Shundan keyin uning o'qishlari sezilarli darajada pasayib ketgani yodimda.

To'g'ri, qo'l telefonlari juda qulay aloqa vositasi-sanaladi. Insонning uzog'ini yaqin, mushkulini oson qiladi. Xat yozib o'tirmay, SMS xizmatidan foydalaniш imkoniyatini aytmaysizmi?


Lekin ulardan to'g'ri va o'z o'mida foydalanyapmizmi? Ana shu jihatlari o'ylanlitradi kishini.

Jamoat transportlarida ayrim tengdoshlarimning shovqin solib

telefonda gaplashishlari, undagi misiqalarni baland ovozda bir-birlariga ko'chirib berayotganlarini ko'rib, men uyalib ketaman. Ayniqsa, dars paytida bir-birlariga SMS xabarlari yuborib, kulishib o'tirishlariga nima deysiz?! Nafaqat o'zları, balki barcha sinfdoshlarining xayolini chalg'itishadi.

BIZNING TAKLIF:

Bir dugonamning aytishicha, u tahsil olayotgan litsey o'quvchilari binoga kirishlari bilan, darslarga xalaqit bermaslik uchun qo'l te-



O'QITUVCHIGA-CHI?

Birinchi soat tarix darsi edi. Ustozimiz darsga biroz kechikib kirdi. Endigina darsni boshlagan ham ediki, sinfdoshimiz Akmalning qo'l telefonini jiringlab qoldi. Darsga xalaqit bergani uchun ustozimiz Akmalni koyib, telefonini olib qo'ydi.

Darsning eng qizg'in pallasida ustozimizning qo'l telefonini jiringlab qoldi. Hammaning diqqati bo'lindi. Ustozimiz hozir telefonini o'chirib qo'ysa kerak, deb o'ylagandik. Unday bo'lmadi, ustoz telefonda bemalol gaplashaverdi. Sinfda g'ala-g'ovur boshlandi. «Bizning telefonimizni olishni biladilar. O'zları esa bemalol gaplashaveradilar. Ularga mumkin-u, bizga mumkin emasmi?» degan e'tirozlar ham eshitildi.


BIZNING TAKLIF:

O'qituvchilar har jihatdan o'quvchilarga o'rnak bo'lislari kerak. Ular ham darsga kirishdan avval qo'l telefonlarini o'chirib qo'yishsa, maqsadga muvosiq bo'lardi.

TAHRIRIYATDAN:

Ziyarak gazetxon, payqagandirsiz, «Bizning taklif» nomli yangi rukn tashkil qildik. Unda qarama-qarshi fikr va mulohazalarni e'tiboringizga havola qilyapmiz. Muammolar haqida ko'p yozamiz-u, uni bartaraf qilish haqida ko'pincha o'ylab ham o'tirmaymiz.

Tengdoshlarining bildirgan fikr-mulohazalar xususida Sizning fikringiz qanday? Ustozlarimiz fikrlari ham biz uchun juda qadrli. Demak, maktublarining kutamiz!



«AFANDI» NING O‘G‘LI



Zarur yumush bilan Namangan viloyatida chop etiladigan «Bolalar dunyosi» gazetasi tahririyatiga kirib o‘tishga to‘g‘ri keldi. Tepasiga «Muharrir» deb yozilgan choqqina bir xona eshigini ochar ekanman, to‘rda o‘tirgan, to‘ladan kelgan, o‘rtalbo‘yli, sariqshingil bir kishi joyidan chaqqonlik bilan turdi-da, bizga peshvoz chiqdi.

Qarang, bugun biz bilan shirin muloqotda bo‘layotgan kishi muhtaram ustozimiz Adham akaning sevimli farzandlari ekan. Po‘latjonning aytganlardan yana shu ma’lum bo‘ldiki, tug‘ilganlarda ham samimiy kulgu va yumorga yo‘rgaklangan ekanlar.

O‘sanda Adham aka oilasi bilan Samarqandda yashar, Sadreddin Ayniuning kotibi bo‘lib ishlar ekanlar. Adham aka o‘g‘il ko‘rganlarini ishxonada eshitib, ustozlardan shifoxonaga borib kelishga mashina so‘rabdilar. Ayniy domla uni tabriklab: «Tug‘ilgan vaqtini qara-ya, bu yerda ish to‘lib yotibdi-ku», deya mashinasini beribdi va qo‘shib qo‘yibdilar: «Bolaning ismini Shoshqaloq deb qo‘y, qolaversa, mashinaga benzinni o‘zing quy». Adham aka ustozga qulluq qilib, shifoxonaga jo‘nabdi. Ammo shoshilganda, yo‘lda falokat yuz berib, mashinaning oldini pachoq qilib qo‘ygan ekanlar. Shu-shu, Ayniy Po‘latjoni ko‘rganda, Adham akaga: «Mashinamning pachoq bo‘lishiga sabab bo‘lgan o‘g‘ling shumi?» deya hazillashar ekan.

Ot o‘rnini toy bosar, deganlaridek, bugun Po‘lat Hamdam ustoz Adham akaning munosib izdoshi. «Bolalar dunyosi»ga muharriqlik qilish bilan birga, «Narodnoye slovo» respublika gazetasining Farg‘ona vodiysi bo‘yicha maxsus muxbirdir. U o‘zining hozirjavob, dolzarb mavzulardagi hayotiy maqolalari bilan minglab mushtariylarning qalbidan o‘rin olib kelmoqda.

*Oxunjon HAKIMOV,
O‘zbekiston xalq shoiri*

YASAMA TISH

– O‘g‘lim, qaragin-a, shanba kunidan beri dadangni kulgidan og‘zi yopilmaydigan bo‘lib qoldi, – dedi onasi.

– Bilasizmi, onajon, dadamlar shanba kuni yasama tish qo‘ydirib keldilar-u, shu ko‘yga tushdilar. Endi uxbab qolsalar ham kulib turganday og‘izlari yopilmaydi.

MUSHUK

Sichqondan so‘rashibdi:
– Dunyoda eng haybatli hayvon qaysi?
Sichqon shosha-pisha:
– Mushuk, – deb javob beribdi.

SOAT NECHA, DIREKTOR?


Tong saharda «Orom»

kinoteatrining direktoriga birov qo‘ng‘iroq qildi:
– Sizning kinoteatringiz soat nechada ochiladi o‘zi?
– Xodimlarimiz soat o‘n birlarda kelishadi, – dedi direktor hayronnamo.

Oradan o‘n daqiqalar o‘tmay, haligi notanish kishi bo‘g‘iq ovozda yana o‘sha savol bilan murojaat etdi:

– Sizning arzanda kinoteatringiz qachon ochiladi, axir?
– Soat o‘n birda, dedim-ku, – direktorning fig‘oni ko‘kka chiqdi.
Bunchalik toqatsiz tomoshabin bo‘lmasangiz?
– Tomoshani boshimga uramanmi, kecha ko‘rgandim-ku. Men eshiklari berk kinozaldan chiqolmasdan xunobman...

Po‘lat HAMDAM



Davomi. Boshi o‘tgan sonlarda.

– Shodlanavering, chunki Siz-Bilasiz. Kim axiyri yo‘q bo‘ldi! Hatto siz kabi magllar ham bu eng baxtiyor kunda bayram qilishlari zarur!

Shu so‘zлarni aytib, chol ikkala qo‘llari bilan janob Durslning mahkam quchgancha, qo‘lini qattiq siqib qo‘ydiyu ketdi.

Janob Dursl tom ma’noda yerga qapishib qoldi. Qarang-a, uni butunlay notanish kimsa quchoqladi-ya! Buning ustiga-ustak, uni qandaydir magl deb atashganlarini-chi... Bu so‘z nimani bildirishiga qaramay, janob Dursl hayratda qolgandi. Axiyri joyidan jila olishni uddalaganidan keyingina bugun ro‘y bergen voqealar uning xayollari mevasidan ortiq hech narsa emasligiga umidvor bo‘lgancha mashinasi tomon ildam odimlab ketdi. Garchi janob Dursl o‘z xayolparastligi va uning mevalariga nisbatan ancha yomon munosabatda bo‘lar edi.

U Tis ko‘chasidan to‘rtinchu uy tomon boradigan yo‘lakka burilgan chog‘ida, o‘ziga tanish yo‘l-yo‘l baroq mushukni darhol payqadi. Uning kayfiyati butkul tushib ketdi. Janob Dursl bu xuddi o‘sha mushukligiga aslo shubha qilmasdi, bu baroq o‘sha rangda hamda ko‘zlarining atrofida aynan o‘sha g‘alati dog‘lari bor edi. Endi mushuk uning uyini qo‘shnisinikidan ajratib turuvchi devor ustida o‘tirdi.

– Pisht! – baland ovozda dedi janob Dursl.

Biroq, mushuk qilt etmadni. Buning ustiga, mushuk janob Durslga shunday o‘qrayib qaradiki, u hatto: «Ehtimol, mushuklar o‘zlarini har doim shunday tutarlar?» deb o‘yladi ham.

Keyin u o‘zini qo‘lga olib, xotiniga bu to‘g‘ida zinhor-bazinhor hech nima gapirmasligi kerakligini o‘ziga uqtirgancha uyiga kirdi.

Dursl xonim uchun bugungi kun har doimgiday, juda ko‘ngilli o‘tgandi. Kechki ovqatlanish chog‘ida u eriga qo‘shnilarining qiziga oid jiddiy muammolari borligi haqida gapirib berdi va oxirida Dadli «Xohlayman!» degen yangi so‘zni o‘rganganini ma’lum qildi. Janob Dursl o‘zini odatdagiday tutishga bor kuchi bilan harakat qilardi.

Dursl xonim Dadlini karavotiga yetqizganidan so‘ng, janob Dursl uni o‘pib, xayrli tun tilidi va mehmonxonadagi oynayi jahonni yoqish

uchun ketdi. Kanallardan birida kechki yangiliklar tugayotgan edi.

– Ko‘rsatuvimiz nihoyasida butun Angliya bo‘ylab ukkilarning g‘alati ahvoldaligiga to‘xtalamiz. Garchi ukkililar odatda tunda ovga chiqib, kunduzlari umuman ko‘rinmasalar-da, bugun erta tongdan boshlaboq mamlakatimizning turli burchaklarida betartib uchib yurgan ukkilarni ko‘rgan yuzlab odamlardan xabarlar oldik. Mutaxassislar ukkilarning nima sababdan o‘z kun tartiblarini o‘zgartirganliklarini tushuntirib berolmayaptilar, – shu yerda doktor miyig‘ida kulib qo‘yishga haddi sig‘di. – Juda sirli. Endi esa so‘zni ob-havo haqida ma’lumot berish uchun Jim Mak Gaffinga beraman. Nima deb o‘ylaysan, Jim, bugun kechqurun yangi ukkilalar yomg‘irlari bo‘lmasmikin?


– Bilmayman, Ted, – ekranda meteoroolog paydo bo‘ldi. – Lekin bugun nafaqat ukkilir o‘zlarini g‘ayri oddiy tutdilar. Tomoshabinlarimiz Angliyaning Kent, Yorkshir va Dandi kabi chekka burchaklaridan menga qo‘ng‘iroq qilishib, kecha kechqurun va’da qilingan yomg‘ir o‘rniga ularda haqiqiy yulduzlar yomg‘iri bo‘lganini ma’lum etishdi! Ehtimol, kimlardir yaqinlashayotgan bayramlarga atab mushakbozliklar uyshtirgan bo‘lsa kerak. Garchi bayramga hali bir hafta muhlat bor bo‘lsa ham. Ob-havo ma’lumotiga kelsak, bugun kechqurun yomg‘ir yog‘ishi kutiladi...

Janob Dursl orom kursida o‘tirgancha jim qotgandi. Yulduzlar to‘kilishi, kuppakunduzi uchgan ukkililar, rido libosidagi g‘alati kishilar... Yana o‘sha Potterlar to‘g‘risida tushunarsiz shivir-shivirlar...

Dursl xonim mehmonxonaga ikki piyola choy bilan kirdi. Va janob Dursl xotiniga hech nima aytmaslik haqidagi ahdi erib ketayotganini sezdi. U hech bo‘limganda, nimanidir aytib berishiga to‘g‘ri kelishini angladi. Va asabiyashib yo‘taldi.

– E... Petuna, azizim... Singlingdan anchadan beri xabar olmaganmiding?

U xuddi o‘zi kutganiday, Dursl xonim chehrasida avvaliga ajablanish alomati ko‘rindi, keyin g‘azab paydo bo‘ldi. Har holda, odatda, ular o‘zlarini go‘yo uning hech qanday singlisi yo‘qdek ko‘rsatardilar. Shu bois, janob Durslning savoliga nisbatan o‘zini bunday tutishini tushun bo‘lardi.



Davomi bor.

Axir shaxmat bilan muntazam shug'ullanish, uning sir-sinoatlarini chuqur o'rganish insонning aqlini teranlashtirib charxlaydi-da...

Kechagina poytaxtimizda shaxmat bo'yicha o'n olti yoshgacha bo'lgan o'g'il-qizlar o'rtasida O'zbekiston birinchiligi o'z g'oliblarini aniqladi.

Ushbu musobaqaada ishtirokchilar soni ko'p bo'ldi. 10 yoshlilar o'rtasida 48 naifar o'g'il bolalar, 13 naifar qizlar, 16 yoshgacha bo'lganlar orasida esa 55 naifar o'g'il bola va 25 naifar qizlar o'zaro bahs maydoniga ko'tarilishi.

16 yoshli qizlar o'rtasida surxonaryolik Rayhona Doniyorova 7,5 ochko to'plab, musobaqa g'olib bo'lidi. Rayhona o'tgan yili 2-o'rinn bilan sohibasi bo'lгandi. Izlanishlar samarasи bu yil unga 1-o'rinni hadya etdi.

Qishki mavsum musobaqasining e'tiborli tomomi shunda ediki, bu musobaqada 6-7 yoshli bolajonlarimiz ham aka-opalari bilan bir qatorida tengma-teng bellashdilar.

Farg'onalik Nodira Parpiyeva 9 imkoniyatdan 6,5 ochko to'plab, musobaqada 3-o'rinni egalladi. O'n olti yoshlilar o'rtasida g'oliblikka erishgan bu qizaloqlar yutug'i hademay birinchilar qatoridan joy oladi.

Champion qizaloq bilan suhbatalashishga oshiqqan muxbirlar qatori biz ham jazzi championning fikrlarini yozib olishga oshiqdik:


2-o'rinn sohibi bo'lgan Toshkent viloyati vakilasi Mastuna Mamatqulovaning natijasi ham shaxmat muxlisi va murabbiylarini diqqatini tortdi. U o'tgan yilgi musobaqalar natijasiga ko'ra, kuchli o'nlikdan joy olgandi.

— Nodirabegim, necha yoshdan shaxmat o'ynaysiz?

— Besh yoshimda bu sehrli o'yinda qiziqib qolganman.

— Poytaxt musobaqasiga qanday tayyorlarlik ko'rdingiz, axir kattalar bilan dona surish oson emas-ku?

— Menga shaxmat bo'yicha jahoning bir necha karra championi Garri Kasparov o'yinlarini dadam yaxshi o'rgatadilar. Musobaqlarga ham uning partiyalarini tahlil qilib tayyorlanaman.



OLTIN MEDAL OLGAN ZARINA



Zarina BAXTIYOROVA 7 yoshda. Musobaqaning jazzi ishtirokchisi Uzun tumanidagi 2-maktabning 2-sinfida o'qydi.

Zarina ham musobaqaning g'oliblaridan biri. Bugun g'oliblik sururi Zarinaning hayajonlarini orzular mamlakatiga boshlagandek...

— Men 2 yildan beri tumanimizdagi «Champion» klubida tahsil olaman. Ustozim Ilhom aka Shoyuzarov. Bugungi musobaqada yakka kata mashqlarida qatnashdим va oltin medalli bo'ldim. Klubimiz a'zolaridan aka-uka Shohruh va Himoyiddin Shukurovlar musobaqada uchinchi o'rindan joy olishdi. Yutuqlarimizdan murabbiyimiz ham, biz ham xursandmiz.

G'OLIBANING G'OLIBLARI

Musobaqlarda yosh championlar kata va kumite bahslarida mahorat cho'qqisini zabit etdilar. Karate bu sportning noyob va go'zal san'at turlaridan biridir. Unda shug'ullanayotgan har bir sportchi bola mashqlarida chaqqonlik hukmron.

Shundandir, sportning bu turida buyuk muhabbat yashirin.

Qahraton qishda vilot-yatimizning har go'shasidan poytaxt sari oshiq-qan sportchi o'g'il-qizlar maqsadi respublika musobaqasida birinchilikni egallashi.

Hayajonli kata va kumite tatamida birin-ketin g'oliblar safini to'ldirayti. Bahslarda kumite bo'yicha O'zbekiston championi degan sharaflı nom sohibi bo'lgan

kosonlik Bahodir Dehqonovni championlik bilan qutlaganimizda, u bizga mahorati haqida quyi-

dagicha izoh berdi:

— Karate bilan 2003-yilda shug'ullana boshlagan edim. O'shanda ukam Begzod ikkimiz

Koson shahrida ochilgan karate klubiga qatnardik. Bir-ikki mashqning o'zidayoq yakka kurash turining bu sinovi kishini mardlik va matonat sari boshlashiga amin bo'ldim. Birinchi murabbiyimiz Sunnat Bo'riyevning usullarini o'rgandim. 2006-yildan Koson tumani neft-gaz kolleji sport zalida murabbiy Jasur Egamberdiyevdan saboq ola boshladik.

Ayni kunda Qarshi shahridagi «Bek» karate klubida Oybek Obqulov bizga ustozlik qilmoqda. Kumiteda g'alaba qozonish qiyin. Chunki jamoadagi uch naifar karatechi raqibning hammasi bilan bellashishi talab qilinadi. Kata — rasmiy mashqlar bo'lib, unda himoya va hujumga xos barcha usullar jamlangan. Shuning uchun ham kata karate

mashg'ulotining asosiy qismi hisoblanadi.

— Jamoadoshlarining haqida ham bizga gapirib bersangiz?

Tarkibimiz Yusuf Pirim-qulov, Dilshod Qilichev va Dilshod Hasanovdan iborat.

Musobaqaning saralash bosqichlaridan so'ng, yarim finalda Toshkent shahri, finalda Samarqand viloyati jamoasi ustidan g'alaba qozondik.

— Bahodir, bugungi yutuqlaringizni ko'rib, xursandmiz. Bizni sportdagи orzu-laringiz qiziqtirmoqda...

— Respublika musobaqasida ilk marta birinchilikni egalladim. Mening orzuim shu edi.

Endi kattalar o'rtasidagi musobaqlarda ham o'zimni sinab ko'rmoqchiman. Mashqlarga zo'r berib, xalqaro maydonlar-sari yo'l olishni niyat qilganman. Yana bir niyatim — huquqshunos bo'lish.



GULRUHNI KASHF ETGAN KUN

Sportning mashaqqatlari-yu g'alabalari, mag'lubiyati va sinovlariga allaqachon ko'nikib ketgan 7 yoshli Gulruh opalari singari sport yo'lini ta'nladi. Shaxmat bo'yicha bir necha karra O'zbekiston championlari, mamlakat terma jamoa a'zolari farg'onalik opasining Nafisa Mo'minova va Hulkar Tohirjonova erishgan yutuqlari bilan yurtimizda shaxmatchi malikalar nomiga munosib. Bugun ularning singlisi championlik nomiga va shaxmat donalariga mahliyo bo'lgan Gulruh Tohirjonova musobaqlarda qatnashmoqda.

O'zbekiston birinchiligidagi 10 yoshgacha bo'lgan shaxmatchilar o'rtasida birinchi bo'lgan Gulruhga ushbu musobaqa 9 imkoniyatdan 7 ochko jamg'arib, sovrindorlikni nasib ayladi.

Gulruh ham muxbirlarning savollariga javob beradigan bo'ldi.

— Oilamizda shaxmatga qiziquvchilar ko'p. Men shaxmat o'ynashni opamlardan o'rganib olganman.

— Bugungi musobaqada g'oliblar qatoridan joy oldingiz...

— Musobaqa meni Gulruh Tohirjonova deya kashf etdi. Yana ko'p musobaqlarda qatnashgim kelyapti. Opalarim yanglig' asosiy tarkib a'zosib 'Isam, deyman.

Musobaqlardan qaytar ekunman, bilimi, yosh, barkamol avlodning dadilligini ko'rib quvondim.

Albatta, musobaqlarda qatnashishdan maqsadimiz Gulruh, Nodira, Zarina kabi jazzi sportchilarni elga tanitishdir. El ichida vatanning dong'in taratish bir-ikki kishining ishi emasligi bot-bot tilga olinadi.

To'g'ri-da, har qanday muvaffaqiyatning ildizida mehnat, mehrmuhabbatning olovli bor bo'lsa, yurtimizda championlarga tenglashayotgan avlod yurt sha'nini albatta ko'klarga ko'targay...

BUGUNNING



«YANGI AVLOD»LARI

Respublika bolalar festivalida g'olib deb topildi.

Ansamblning kelajakdag'i rejali ulkan va ular ana shu orzular ro'yobini ko'rish maqsadida ildam qadam qo'ymoqda, deyish mumkin.

— Muvaffaqiyatimizdan avvaliga hayajonlandim, bolalarning quvonchini ko'rib esa ko'zlarim sevinch yoshlari bilan to'ldi, — deydi «Marvarid» guruhi badiiy rahbari Arofat opa Ashurova. — Bu albatta qilgan mehnatlarimiz natijasi, ammo bu endi bizni yana-da mas'uliyatl'i bo'lishga undaydi. Niyatimiz, bolalarimiz yaxshi o'qishsin, yurtiga kerakli inson bo'lib, uning gullab-yashnashiga o'z hissasini qo'shishsin!

Biz ham «Marvarid» guruhining keyingi ishlarida muvaffaqiyatlar tilab qolamiz.

*Suratda:
«Marvarid» guruhi*

«MARVARID»NING QUVONCHI

Gazetamizda «Bugunning yangi avlod»lari ruknini tashkil etganimiz.

Toshkent shahri, Hamza tumanida joylashgan 67-maktab qoshidagi «Marvarid» folklor-etnografik guruhi ko'plab tanlovlarda, bayram kechalarida o'z kuy-qo'shiqlari, jozibali raqslari bilan ishtirot etib, faxrli o'rirlarni qo'lga kiritib kelmoqda. 2007-yilda «Qo'shiq» bayramlarida qatnashgan guruh faxrli o'rinni egalladi va shu quvonchlarning davomi sifatida «Yangi avlod – 2007»


OZ-OZ O'RGANIB, DONO BO'LUR

Bir tasavvur qil-a, aziz o'quvchim, sen katta hayot ostonasiga chiqding va odamlar seni maqtay boshladilar. Maqtov hammaga yoqadi. Xususan, senga ham. Ammo hamma narsaning me'yori, yaxshi-yomon tomoni bo'lganidek, maqtovning ham foydasi-yu, lekin ko'proq zarari bor. Shu bois ham maqtovlarning turlarini ajratmoq zarur. Buni bilgan odam qoqlimaydi, ya'nikim, olg'irning maqtoviga ishonib bo'lmaydi, u foydasini ko'zlab seni maqtaydi. Xushomadgo yning maqtovida qanday ta'ma borligini o'zing bilasan. Ahmoqning maqtovi bir pulga qimmat. Xo'sh, unda qanaqa maqtovga ishonish kerak? Bu to'g'rida donolar nim'deyishgan?

«Sendan hech qanday muruvvat ko'rmagan kishininggi naqtovi eng durust maqtovdir», deydi arab shoiri va olimi Abul Faroj (897-967).

YAXSHI

QIMMATLI BOLAJONLAR, KITOBSEVAR MUXLISLAR!



Yaqindagina sizlarni jon-dildan sevvuchi, bir qancha bolalarga atalgan ko'rsatuv va eshittirishlar muallifi bo'lgan Tohir aka MULLABOYEV «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati tomonidan «TOPISHMOQLAR» to'plamini bosmasdan chiqardi. Adadi 1000 nuxsada chop etilgan ushbu kitobga rangli suratlarni rassom Rustam Zufarov chizgan.

Ma'lumki, topishmoqlar xalq og'zaki ijodining bir turi bo'lib, u bolalar ongini, bilimini oshirishga, tez fikrlashga yordam beradi, hujjavoblikka o'rgatadi.

Mazkur to'plamidan bolajonlar uchun bir-birdan qiziqarli bo'lgan topishmoqlar joy olgan. Ular «Dala, bog'lar oralab, chiston toping saralab», «Top-chi, bularning bari, uy-ro'zg'or asboblari», «Har sohadan bir shingil, o'ylab top, zukko bo'lgin» sarlavhalari ostida siz aziz o'quvchilar e'tiboriga havola etilgan.

KITOBALAR


Topishmoqlarni o'qib, ularidan o'qish, ona tili, tabiatshunoslik darslarida keng foydalanish mumkin.

Quyida kitobdan olingan topishmoqlardan ayrimlarini e'tiboringizga havola etmoqdamiz. Topishga harakat qilib, bilimingizni sinab ko'ring-chi!

Jigars emas, jigarrang,
Hosil tugur shar kabi.
Taom bo'lar rang-barang,
Nima ekan, bu Nabi?
(Babafalon)

* * *

Onasidek mehribon,
Pati yo'q, jo'ja ochar.
Ichmaydi suv, yemas don,
Qani, kim o'ylab topar?
(Inkuqbar)



BO'R



BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV
Navbatchi:
Gulyuz
ORIFJONOVA

Gazeta
O'zbekiston
matbuot va
axborot
agentligida
0208-raqam
bilan 2007-yil
2-fevralda
ro'yxatdan
o'tgan.

TAHIR HAY'ATI:
Turrobjon JO'RAYEV,
Dilbar ALIMJONOVA,
Qahramon QURANBOYEV,
Jabbor RAZZOQOV
(«O'zbekiston» NMU Bosh
muharrir o'rinosari),
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinosari),
Sobirjon SHARIPOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.
e-mail: tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25, 144-63-08
Tel/faks:
(99871) 144-38-10

Rassomlar:
Nodira MIRZAYEVA,
Feruz MATYOQUBOV

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy
uyida
chop etildi.
Haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Shakli A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 58114
Buyurtma N: J 4745

TOPSHIRIQLI SKANVORD

Sport sovrini	Ilmos-noma	Samo, osmon	Bulundon ayol	Ot tusi	Besh doston	Futbol jamoa	Musiqaga asbobri	Drama qismi	Bella-shuv sporti	Sinf jihizi	Janub mevasi	Muvof-faqi-Yat
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
O'zbek adrida	Metall	Qat-tug ma dan	Rangli metall	Vozuyash-yost	Avto moy	Olov zarrasi	Bilbm asosi	Milly taom	bayram oldi	Aqliy o'yin	Yer shari qismi	Suzish usuli
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*
*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*	*

Skanvordni hal etib, kataklar bo'yicha hikmatli so'zni bilib olasiz.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati Markaziy Kengashi,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatiga
qarashli bo'ligan xalqaro xayriya jamg'armasi.

BOSH MUHARRIR:
To'lqin HAYITOVA

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV
Navbatchi:
Gulyuz
ORIFJONOVA